



## BIZNESDA KREDITLARDAN FOYDLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

---

*Rahmonov Suhrob Ilhomovich*  
*Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kreditlardan foydalanish samaradorligini baholash, mavjud to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulush ko'rsatkichlarini oshirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida erishilgan natijalar va kelgusidagi rivojlanishi bo'yicha nazariy-amaliy takliflar berishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** bank, kredit, tadbirkorlik subyektlari, yalpi mahsulot, import, eksport, ishchi o'ri.

### Kirish

So'nggi yillarda respublikamizda biznesda kreditlardan foydalanish, imtiyozli kreditlar ajratish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash hamda tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, bank tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun ko'rsatilayotgan bank xizmatlari, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit xizmatlari hajmini oshirishda alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlar muhim o'rin egallaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga imtiyozli kredit mablag'lari ajratish orqali ularning mamlakat yalpi ichki mahsuloti ko'rsatkichlarini oshirishda, import o'rnini bosuvchi eksportbop tovarlar ishlab chiqarish hamjini yanada oshirishda hamda yangi ish o'rinlari yaratishda tijorat banklari nihoyatda katta rol o'ynaydi.

Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirish, innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil



etish, jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish va shu orqali mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda bank tizimi tomonidan olib borilayotgan investitsion siyosat o'z samarasini bermoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida amalga oshirilayotgan jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimizni taraqqiy ettirish va aholi farovonligini oshirishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

“Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat berish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikromoliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo'l ochib beriladi. Bunday choralar orqali odamlarimizda tadbirkor bo'lishga ishtiyoq va ishonch ortadi, ular ko'proq daromad olishga intiladigan bo'ladi”. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizidan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda va ularning eksportdagi ulushi 20,5 foizni tashkil etmoqda.

“2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga etkazish” singari ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatini takomillashtirishni talab etadi. Mazkur vazifalarning bajarilishi iqtisodiyotda kichik biznes sub'ektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda uni samaradorligini oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishni talab etadi.

Dr. Jay A. Dewhurst “Biznesga kirish va biznesni rejalashtirish” nomli adabiyotidagi fikriga ko'ra, tadbirkor o'zgartirishlar agenti, tadbirkorlik yangi usullarni izlab topish jarayoni va ko'p hollarda yangi korxonalar yaratuvchilar hisoblanadi, deb o'z fikrlarini bildirgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ilmiy ishni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy



hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy siyosatning strategik vazifasi sifatida jadal sur'atlarda rivojlantirilmoqda.

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini e'tiborga olgan holda ularning iqtisodiy salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning qo'shimcha ichki imkoniyatlarini ochib berish, xo'jalik yuritish jarayonida xususiy manfaat va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirish mexanizmini takomillashtirish, aholini tadbirkorlikka jalb etish tizimini takomillashtirish, global koronavirus pandemiyasi davrida zarar ko'rgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash loyihasini amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, imtiyozli kredit mablag'lari ajratish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish, kichik biznes korxonalari eksport salohiyatini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

### **Xulosa va takliflar**

Kichik biznesning rivojlanishi milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, kichik korxonalar yangi texnologiyalarni tezroq va arzonroq tarzda qayta jihozlashi, tadbiiq etishi, sinovdan o'tkazishi, ishlab chiqarishni qisman yoki to'liq avtomatlashtirishni amalga oshirishi, avtomatlashtirilgan va qo'l mehnatining maqbul kombinatsiyasiga erishishini ta'minlaydi hamda zamonaviy sharoitda, kichik biznesni shakllantirish jarayoni boshlang'ich bosqichida bo'lganida, uning miqdoriy va sifat jihatidan yanada rivojlanishi milliy iqtisodiyotning izchil yuksalishining eng muhim omili hisoblanadi.

Kichik biznesning barcha afzalliklariga qaramay, engib bo'lmaydigan muammolar ham mavjud.

- bank muassasalaridan tegishli muddatlarda imtiyozli kredit mablag'lari ajratilmaganligi;
- faoliyatni amalga oshirish joylarida ijara shartnomalari asossiz bekor bo'lishi;
- yer maydoni ajratilmaganligi;
- hududlarda infratuzilmalarni faoliyati qoniqarsizligi;



- elektr tarmoqlariga ulanishda kichik korxonalariga ham yirik zavodlar bilan bir xil talablar qo'yilganligi;

- transport-logistika xizmatlarini rivojlanmaganligi

Kichik biznesning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ammo davlat ko'magisiz kichik biznes tanazzulga uchrashi mumkin

Kichik biznesni rivojlantirishning tarmoq va hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Shu bilan birga, ushbu strategiyaning asosiy tarkibiy qismlari bo'yicha quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- ❖ iqtisodiyotimizni deyarli barcha tarmoqlari modernizatsiya qilinib, texnologik jihatdan yangilash jarayonini tezlashtirish kerak;

- ❖ ishlab chiqarish jarayonlarini mahalliyashtirish, korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish va raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishiga yanada keng imkon yaratish zarur;

- ❖ respublikamiz hududlarida tashkil etilishi belgilangan kichik sanoat zonalarini faoliyatini jonlantirish hamda bu hududlarda mahalliy kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan mintaqaning iqtisodiy-sanoat salohiyatini hisobga olgan holda yangi ishlab chiqarish loyihalarini joylashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak;

- ❖ tashqi bozor konyukturasini chuqur o'rgangan holda hududlarda eksportga yo'naltiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim;

- ❖ kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlari va yirik sanoat korxonalarini o'rtasida ichki tarmoq kooperatsiyasini rivojlantirish yo'lida istiqbolli sanalgan loyihalar bo'yicha ishlab chiqarishga investitsiyalar ro'yxatini shakllantirish kerak;

- ❖ hududlarda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlariga biznes forumlar hamda ixtisoslashgan ko'rgazmalar jarayonida maxsus ko'rgazma stendlari bilan qatnashish imkoniyatlarini yaratish lozim;

- ❖ kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlari manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada jadallashtirish zarur;

- ❖ hududlarda xususiy sektor va kichik biznes faoliyatini diversifikatsiyalashda bank, sug'urta, lizing kompaniyalari, konsalting va boshqa turdagi bozor infratuzilmalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini yanada oshirish kerak;



❖ xususiy tadbirkorlarning turizm, engil va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik va metallga ishlov berish, qishloq xo‘jaligi, avtomobilsozlik, qurilish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, transport xizmatlari, qadoqlash materiallarini ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini qayta ishlash kabi tarmoqlarda shaxsiy tashabbuslarini rag‘batlantirish zarur;

❖ moliya-kredit tizimini takomillashtirish hamda kichik korxonalarining kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish kerak;

❖ ulgurji va mayda ulgurji savdoni rivojlantirish, kichik tadbirkorlik korxonalarining xomashyo, asbob uskuna, texnologiyalar, tarkibiy qismlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, kichik biznes korxonolari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotish tizimini yanada takomillashtirish zarur;

❖ kichik biznes korxonolari yaratilishi va faoliyatining me‘yoriy- huquqiy negizini yanada takomillashtirish kerak;

❖ oliy o‘quv yurtlarida kichik biznes uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish zarur;

❖ kichik biznes faoliyati ko‘rsatkichlarining hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish.

Kichik biznesni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini yuksaltiribgina qolmasdan, oila farovonligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 10.06.2022 y., 06/22/152/0507-son.
3. Abdullaev Y.A., Qoraliev T.M., va boshqalar “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma -B.M.:T.: “Iqtisod-Moliya”, 2009. - 576 b.
4. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.–184 b.
5. Boltaboev M.R., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. –T.: TDIU, 2010y. 240 b.
6. Vaxobov A.V, Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2010. - 174 b.
7. Jumaev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodogiyasini takomillashtirish.T. “Fan va texnologiya”,2007y.286b